




ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



MUNDARIJA

Baxtiyor ADIZOV. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	7
Ширинбой ОЛИМОВ, Юлдуз САИДОВА. Талабалар маънавиятини ривожлантиришнинг йўналишлари	10
Bolta XODJAYEV. Shaxs ijtimoiylashuvida fuqarolik madaniyati muhim pedagogik omil sifatida	16
Нодира МУСАЕВА, Нафиса МУСАЕВА. Разработка теоретических основ технологии непрерывности обучения основанной на педагогической таксономии	20
Baxshillo UMAROV. Yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalari merosidan foydalanish imkoniyatlari	24
Кобилжон АБДУЛЛАЕВ. Приоритетные направления государственной образовательной политики в сфере дошкольного образования.....	28
Shabon FARMONOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	31
Гулия ХАБИБОВА. Функция махаллы в современном обществе Узбекистана	36
O'lmas QURBONOVA. Pedagogik fikrlar taraqqiyotining ayrim masalalari	39
Manzura OCHILOVA. O'quvchilarning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishida al- Buxoriy ta'limotining o'rni	42
Bobomurod JURAYEV. Abushakur Balxiyning "Ofarinnoma" asarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari.....	45
Gulchehra IZBULLAYEVA. Didaktik asarlarda do'stlik munosabati va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.....	49
Nargiza BAXRIYEVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanganlik dinamikasi	54
Dildora TOSHEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashda tabiiy fanining o'rni va ahamiyati.....	59
Olimjon AHMADOV. Taraqqiyparvarlarning Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishga qaratilgan g'oya va qarashlari	63
Oybek ORTIQOV. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	66
Matluba XOJIYEVA. Abu Rayhon Beruniyning axloqiy qarashlari	70
Nigina ISMATOVA. Yoshlarni oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usul va vositalari	76
Lola ELIBOYEVA. Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari	80
Feruza RAMAZONOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy e'tiqod tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari	86
Ma'rifat UMUROVA. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda milliy merosning o'rni	89
Nilufar RAXIMOVA. Tasavvuf ta'limotining tarbiyaviy ahamiyati	93
Mirjon AMONOV. O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari va mezonlari.....	96

PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTINING AYRIM MASALALARI

Maqolada pedagogik fikrlar taraqqiyoti tahlilining ba'zi masalalariga toxtalib o'tilgan.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, individual ta'lim, jamoa ta'limi, ta'lim tizimi.

В статье рассматриваются некоторые вопросы развития педагогической мысли.

Основные понятия: образование, индивидуальное образование, общественное образование, система образования

The article focuses on some issues of the analysis of the development of pedagogical ideas.

Basic concepts: education, separate education, public education, education system

Bugun ta'lim iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash" [1] bugungi kunning dolzarb vazifalaridan ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar. "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq" [2]. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. O'zbekiston uchun istiqbolli, davlat talablariga mos keladigan ta'lim tizimini yaratish porloq kelajakka yo'naltirilgan yagona yo'ldir. Mamlakatimizda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish, ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar ta'limni insonparvarlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatini oshirdi.

Ta'limni tashkil etish shakli – bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir. O'quv jarayonidagi alohida bo'g'inni, darsning ma'lum bir turini (dars, ma'ruza, seminar, ekskursiya, fakultativ dars, imtihon va boshqalar) loyihalash.

Ta'lim shakli didaktik kategoriya sifatida ta'lim jarayonini tashkil etishning tashqi tomonini anglatadi. Bu mashg'ulotning maqsadi, mazmuni, usullari va vositalari, tashkil etish shart-sharoitlari, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining tarkibi va uning boshqa elementlariga bog'liq bo'ladi.

O'qitishning turli shakllari mavjud bo'lib, ular o'quvchilar soni, mashg'ulot vaqti va joyi, uni amalga oshirish tartibiga ko'ra farqlanadi.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, ma'ruza-seminar va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktabdan tashqari. Ular o'quvchilarni ta'limga qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: individual; sinf-dars; ma'ruza-seminar [3].

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan ta'limni tashkil etishning eng qadimgi shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. Ta'limning individual shakli o'qituvchining bir talaba bilan o'zaro munosabatini o'z ichiga oladi. Individual ta'lim antik davr va o'rta asrlarda qo'llangan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan. Ta'limning guruh shakllarida talabalar turli asoslarda tuzilgan guruhlarda ishlaydi. Ta'limning frontal shakli o'qituvchining bir vaqtning o'zida barcha talabalar bilan bir xil tezlikda va umumiy vazifalar bilan ishlashini o'z ichiga oladi. Ta'limning individual-guruhli shakllari ilk bor XVI asrda Yevropa mamlakatlarida foydalanilgan bo'lsa, Markaziy Osiyoda esa bu qadimgi davrlardan qo'llangan.

Masalan, "Avesto" (eramizdan avvalgi VII-IV asrlar) davrida maktablarda individual o'qitish jamoa shaklidagi o'qitish bilan hamohang olib borilgan. O'qituvchi "Avesto" kitoblardan birini ochadi va o'quvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o'qiydi, keyin hamma birgalikda o'qilgan matnlarni takrorlagan. Mashqlar maxsus taxtachalarga yozilgan. Aqliy mashqlar o'qituvchining o'quvchi bilan erkin suhbatida davomida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash asosan, individual va jamoa shaklida amalga oshirilgan.

Otda yurish, yugurish, suvda suzish, nayza otish, qilichdan foydalanishni bilish, ov qilish kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta'lim olish jarayoni tong otgandan kun botgunga qadar davom etgan, uy vazifalari berilmagan [4].

Ta'limning jamoa shakli frontaldan farq qiladi, chunki o'quvchilar o'ziga xos o'zaro ta'sir xususiyatlariga ega bo'lgan yaxlit jamoa sifatida qaraladi.

IX asrda Abu Ali ibn Sino o'zining "Tadbir al-manozil" asarida maxsus "Amuzish va parvarishi modrasas farzand" ("Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash") bo'limida bolalarni jamoada o'qitish lozimligi haqida bir qator tavsiyalar berib o'tadi:

-agar bolalar birgalikda o'qisalar, ular zerikmaydilar, fanni o'rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o'zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, bu bolaning o'qishi yaxshilanishiga yordam beradi;

-o'zaro suhbatda bolalar kitobdan o'qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma'lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;

-bolalar birgalikda yig'ilganlarida bir-birilari bilan do'stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar; ular faqatgina musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o'quv materiallarini o'zlashtirishda yordam beradilar;

-bu bilan bolalar mag'rurlanadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o'rganadilar [5].

Burhoniddin Zarnudji "Bilim olish yo'lida o'quvchiga maslahatlar" asarida o'qituvchining o'quv materialini tanlash masalasiga e'tibor qaratadi. O'quv materiali shunday tanlanishi kerakki, u o'quvchilar tomonidan ikki marotaba takrorlanganda o'zlashtirilsin. Shuning uchun alloma, katta matnlarni qismlarga bo'lish va keyingi darslarda uni albatta takrorlashni tavsiya etadi. Shuningdek, o'qituvchi maktabda o'quvchi darsda tushinishi va o'zlashtirishi mumkin bo'lgan o'quv materiallarini tanlab olishi, dars davomida o'rganiladigan materiallarni tushuntirib berishi, maktabda dars taxminan bir soatlar davom etishi lozimligini aytib o'tadi.

XV asrda jamoa shaklida o'qitishni tashkil etish g'oyasi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan davom ettirilgan. Mutafakkir o'zining madrasalarida individual mashg'ulotlar tizimini bekor qiladi va "jamoat" sinf-dars tizimiga yaqin bo'lgan shaklni joriy etadi. Umumiy ma'ruzalarni 50-70 kishidan iborat katta guruhlarda, odatda o'z sohasida mashhur bo'lgan olim mudarris (o'qituvchi-professor) o'qiydi, amaliy mashg'ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhda kichik mudarris (o'qituvchi) olib boradi. Bu davrda, Movarounnahrda, o'qitishning munozara va muammo metodlari o'rta va oliy madrasalarda keng qo'llangan.

XV-XVI asrlarda Yevropa mamlakatlarida ishlab chiqarish jarayoni yuzaga kela boshladi. Bu o'zgarishlar esa, ta'lim berishning jamoaviy shakli shakllanishiga zamin yaratdi. Ta'limning guruhli (jamoat) shakli G'arbiy Rossiya birodarlik maktablarida ilk bor qo'llanilgan hamda bu o'qitishning sinf-dars tizimi yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. XVII asrda Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida sinf-dars tizimini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi va dunyo mamlakatlarida ommaviy qo'llana boshladi. Komenskiy pedagogikaga o'quv kuni, o'quv yili, dars mashg'ulotlari orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi. Sinf-dars tizimi garchi uch asr avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda keng foydalanib kelinmoqda.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga e'tibor kuchaydi. XX asr boshlarida Yevropa va AQSH maktablarida o'quvchilarning individual, mustaqil o'quv ishlarini tashkil etishga qaratilgan bir qator ta'lim shakllari sinab ko'rildi (tabaqalashtirilgan o'qitishning Yevropada Maigneys tizimi, AQSHda Batov tizimi). 1905 yil Massachusetts shtati Dalton shahrida individual ta'lim tizimi o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan ilk bor qo'llanilgan. Bu tizim Dalton-Reja nomi bilan fan tarixiga kirdi. Ushbu laboratoriya yoki ustaxonada o'qitish tizimining mazmuni: o'quv faoliyatining samaradorligi, o'ziga xos xususiyatlari, bir xil yosh va taxminan bir xil tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar guruhidan tarkib topadi va bu tarkib ta'limning umumiy davrida doimiy tarkibni saqlaydi; o'quv faoliyati yagona yillik reja va dasturga ko'ra dars jadvali asosida tashkil etiladi; o'quvchilar maktabga yilning bir vaqtida hamda belgilangan soatda o'qishga keladilar; o'quv mashg'ulotining asosiy birligi dars hisoblanadi; dars odatda muayyan fanlar bo'yicha tashkil etiladi; o'quvchilar sinfda bir o'quv materiali ustida ishlaydilar; o'qituvchi o'quvchilar faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda o'zi o'qitadigan fan bo'yicha har bir o'quvchining BKMni baholaydi. O'quv yili oxirida o'quvchini navbatdagi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qiladi.

Tizimning o'ziga xos xususiyati, har bir o'quvchining qobiliyati, imkoniyati, saviyasiga bog'liq holda ta'lim faoliyatini tashkil etishga qaratilgan, bu esa an'anaviy ta'limda o'quvchi mustaqil o'quv faoliyatining asosi hisoblanadi. O'qituvchining vazifasi faoliyatni tashkil etishda odob qoidalariga amal qilish, sinf laboratoriyasining ustaxonalar bilan almashtirilishi; har bir o'quvchining laboratoriya (ustaxona)larda o'qituvchidan alohida olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishi va zarur bo'lgan vaqtda o'qituvchidan yordam so'rashi.

XX asrning yigirmanchi yillarida ta'limning loyihali tizimi yuzaga kela boshladi. Bunda o'quvchilarning o'zlari mavzu tanlab uning loyahasini tayyorlashga kirishadi. Loyiha ishlari real hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-maishiy jihatlarini aks ettirishi lozim edi.

XX asrning 60-yillarida amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramp ishlab chiqqan Tramp rejasi ommalashdi. Ta'limning bu shakli mashg'ulotlarni katta (100-150 nafar) auditoriyada 10-15 kishidan iborat guruhlarda yoki va o'quvchilarning har biri bilan individual ishlarni olib borish g'oyasini ilgari suradi. Ma'ruzani tashkil etishga turli texnik vositalardan foydalangan holda o'quv vaqtining 40 foizi, seminarlarga 20 foizi va laboratoriyalarda individual ravishda mustaqil ishlarni bajarishga 20 foizi ajratildi.

O'rta asrlarda Yevropada dastlabki universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning ma'ruza-seminar tizimi qo'llana boshlagan. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, maslahat va ixtisoslik bo'yicha amaliyot bugungi kunga qadar o'qishning asosiy shakllari sifatida qo'llanib kelinmoqda. Ushbu tizim odatda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim amaliyotida keng qo'llanadi. O'zbekistonda ma'ruza-seminar tizimidan akademik litsey va professional ta'lim amaliyotida samarali foydalaniladi.

Didaktik fikrlar tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimga aylanib boradi. Didaktik tizimlar bevosita, ta'lim turlarini tavsiflash imkonini beradi. Ibtidoiy jamoa va quldorlik tuzumi davrlarida, insoniyat taraqqiyoti davomida orttirilgan hayotiy tajribalar amaliy harakatlar yordamida yosh avlodga uzatib borilgan bo'lsa, keyinchalik ular aniq belgilangan joy va ayrim toifa kishilar tomonidan maxsus ta'lim amaliyotida ta'limning jamoaviy (ommaviy), guruhli va individual shakllardan foydalanildi.

Ta'limning ommaviy shakli sinfdagi jami o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko'zda tutadi. Guruhli shaklida esa o'quvchilar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib borishni nazarda tutadi. Guruhlar uchun tayyorlanadigan topshiriqlar tizimi bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi. Bu jarayonda o'qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun guruh o'quv faoliyatini boshqarib boradi, o'quv hamkorligini qaror toptiradi. Ommaviy ishlashning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining guruh faoliyatini yaxlit nazorat qilish hamda har bir o'quvchi ishini kuzatish bilan bog'liq. Biroq, ommaviy ishlash individual farqlarni hisobga olmaydi, u fanlarni o'rtacha o'zlashtiradigan o'quvchiga mo'ljallanadi. Shuning uchun ba'zi o'quvchilar berilgan pedagogik topshiriq ish sur'atidan ortda qoladi, ayrimlar esa zerikib, qiynalib qoladi. Ta'limning jamoaviy (ommaviy) shakli shakllangan, turg'un o'quvchilar guruhi bilan o'quv faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Ta'limning guruhli shaklida, o'qituvchi bir vaqtda butun guruh o'quvchilarining bilish faoliyatlarini boshqaradi. O'quvchilarni jamoaviy, umumlashtirilgan-guruhli va tabaqalashtirilgan guruhlariga taqsimlash mumkin. Ta'limning jamoaviy shakli ko'p hollarda tabaqalashtirilgan guruhlar faoliyatini tashkil etish jarayonida qo'llanadi. O'quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o'qituvchi va o'quvchilarning dinamik yoki o'zgaruvchan tartibli juftliklarda olib boriladi.

Umumlashtirilgan-guruhli shakl har bir kichik guruh tomonidan yagona topshiriqning faqat bir qismini bajarishni nazarda tutadi. Tabaqalashtirilgan-guruhli shaklda o'quv imkoniyatlari, ko'nikmalari bir xil darajada shakllangan o'quvchilar bilan o'quv faoliyatini olib borishni ifodalaydi. Bunda o'quvchilar juftliklarda ishlashlari ham mumkin. Ta'limning individual shakli esa, mohiyatiga ko'ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasa-da, biroq o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajarishga diqqat qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ("2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha" Harakatlar strategiyasi). <https://lex.uz/docs/-3107036>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-ituv-30-09-2020>

3. Краевский В. В., Хуторской А. В. Основы обучения. Дидактика и методика. М., 2007

4. Hamidov H. Avesto fayzlari. T.,2001

5. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. T.,2004.

6. Курбанова У. У. РАЗВИТИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИДЕЙ ПО ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-1 (99). – С. 62-65.

7. Курбанова У. У. Модульные технологии-современный способ получения высшего образования //Academy. – 2019. – №. 11 (50). – С. 38-40.